



SANOAT KORXONALARI TOMONIDAN ISHLAB CHIQILGAN MAHSULOT HAJMI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING PROGNOZI

SATTOROV FIRDAVS ZIYODULLAYEVICH

*Qashqadaryo viloyat hokimining jamoat va diniy tashkilotlar bilan aloqalar
bo'yicha o'rinbosari kotibiyati mudiri.*

firdavss1717@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Mintaqada sanoat tarmoqlarining rivojlanish tendensiyalarini baholash va keyingi davr uchun istiqboldagi ko'rsatkichlarini ishlab chiqish uchun uning muhim ko'rsatkichlar bo'lgan mahsulot hajmi va unga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida keltirilgan ko'rsatkichlarning prognozi qiymatlarini ishlab chiqqanmiz*

Kalit so'zlar; *mintaqa, sanoat, sektor, model, ekonometrik, mezon, korrelyatsiya, koeffitsiyent.*

Анотация: *В данной статье с целью оценки тенденций развития отраслей промышленности региона и разработки будущих показателей на следующий период мы разработали прогнозные значения показателей, перечисленных в качестве основных влияющих на него факторов, которые являются его важными. индикаторы.*

Ключевые слова: *регион, отрасль, сектор, модель, эконометрический, критерий, корреляция, коэффициент.*

Abstract. *In this article, in order to evaluate the development trends of industrial sectors in the region and to develop future indicators for the next period,*



we have developed the forecast values of the indicators listed as the main factors influencing it, which are its important indicators.

Key words; *region, industry, sector, model, econometric, criterion, correlation, coefficient.*

Sanoat subyektlar tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot hajmi hajmi, Nodavlat sektorda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish xajmi hamda Sanoat subyektlari korxonalari kapitaliga kiritilgan investitsiyalar qiymati nominal ko'rsatkichlar hisoblanadi va ulardan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish xulosalarni asosli bo'lmasligini ta'minlaydi. Buni inobatga olgan holda biz ko'rsatkichlarni real qiymatlarini aniqladik.

Ishlab chiqilgan prognoz natijalari shuni ko'rsatadiki, Mintaqada sanoat tarmoqlari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot hajmi trend modelidan olingan prognozlarga ko'ra 2021 yilga nisbatan 2022 yilga borib 1,18 barobarga oshadi, 2028 yilga borib esa 1,96 barobarga oshadi. Natijada Sanoat subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmini mavjud trend bo'yicha yililga 10.1 foizga oshirish imkoniyati mavjud ekanligi aniqlandi.

1-jadval

Mintaqada sanoat subyektlari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot hajmi va unga ta'sir etuvchi omillarning prognozi

Yillar	Sanoat subyektlar tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot	Sanoatda band bo'lganlar soni (ming kishi) X1	Nodavlat sektorda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish xajmi	Sanoat subyekt korxonalar soni (birlik) X3	Sanoat subyektlari korxonalar kapitaliga kiritilgan
--------	---	---	---	--	---



	hajmi (mlrd so'm) Y		(mlrd so'm) X2		investitsiya lar qiymati (mlrd so'm) X4
2021					
haqiqiy	1874,1021	89,8210	9044,2154	4,4820	1622,1210
2022	2213,6538	92,6456	7105,3763	4,5021	1745,9403
2023	2473,0812	98,5686	7322,7612	4,5348	2694,7776
2024	2749,3322	104,747	7521,1747	4,8175	5276,9789
2025	3042,4068	111,1808	7700,6168	5,1786	10334,6112
2026	3352,3050	117,870	7861,0875	5,6265	18912,9375
2027	3679,0268	124,8146	8002,5868	6,1696	32280,0128

Shuningdek, Mintaqa sanoatida band bo'lganlar soni 2021 yilga nisbatan 2022 yilga borib 1,03 barobarga oshishi, 2027 yilga borib esa 1,38 barobarga oshishi aniqlandi. Ushbu omilni pronoz qiymatlarini ishlab chiqishda uchunchi darajali tenglamadan foydalanilganligi sababli o'rta muddat uchun prognoz qiymatlari ishlab chiqildi.

Nodavlat sektorda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2021 yilga nisbatan 2022 yilga borib 0,38 barobarga kamayishi, 2027 yilga borib esa 2022 yilga qaraganda 0,88 barobarga oshishi, Sanoat subyekt korxonalari soni 2021 yilga nisbatan 2022 yilga borib 1 barobarga oshishi, 2027 yilga borib esa 1,37 barobarga oshishi prognoz qilindi. Bu yerda mintaqada sanoat subyektlari sonini prognoz qilishda foydalanilgan modelni grafik asosida qarab chiqadigan bo'lsak model yordamida aniqlangan ko'rsatkichlar bilan haqiqiy ko'rsatkichlar farqi



bo'lgan tasodifiy miqdorlarni ba'zi vaqt oralig'ida katta qiymatga ega bo'lganligiga guvoh bo'lamiz.

Aynan ushbu holatni tahlil uchun olingan davrning oxirida vujudga kelishi prognoz qiymatlarini dastlabki davrda past bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Buni inobatga olgan holda tuzatish ishlarini amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz. Modelni ishlab chiqish va prognozni amalga oshirish jarayonida olingan natijalar bu qarorni qanchalik to'g'ri ekanligini asoslamoqda. Amalga oshirilgan tahlillardan ma'lum bo'lishicha iqtisodiy jarayonlarda ko'rsatkichlarni prognoz qilishda trend modellaridan foydalanish, ma'lumotlar rivojlanishini umumiy tendensiyalarini aniqlab olish, va kelgusi davrda uchun qiymatlarini aniqlash asosida rivojlanishning istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Yuqoridagi izlanishlar natijasida mintaqa sanoati subyektlari faoliyatini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlar aniqlandi va ularning prognoz qiymatlarini ishlab chiqishning muhimligi asoslandi.

Shuningdek, har ko'rsatkichni vaqtga bog'liq o'zgarish dinamikasini o'rgangan holda trend modellari va ular asosida 2028 yilga qadar prognoz qiymatlari ishlab chiqildi. Biroq, modellar barcha mezonlar natijalariga ko'ra adekvat bo'lgan bo'lsada, ba'zi holatlarda determinatsiya koeffitsiyentining yetarli darajada katta bo'lmagan holatlar hamda prognoz qiymatlarini haqiqiy qiymatlarga mos kelmagan holatlari ham uchradi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda tadqiqot ishining mazkur paragrafida mintaqa sanoati subyektlari faoliyatini ko'p omilli empirik modellar asosida prognozlash masalalarini qarab chiqamiz. Mazkur tahlil jarayoniga o'tishdan oldin ko'rsatkichlar orasida bog'liqlik darajasini qarab chiqish va ularning tahlil qilish talab qilinadi. Ushbu tahlilni amalga oshirish uchun korrelyatsion analiz usulidan foydalanamiz. Mintaqada sanoat subyektlari faoliyatining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ular o'rtasida bog'liqlik darajasini korrelyatsiya koeffitsiyenti asosida baholash maqsadida korrelyatsion matritsa Eviews 9 dasturida hisoblandi (1-jadval).



Keltirilgan jadvalda nafaqat korrelyatsion analiz natijalari balki kovaritsiya ko'rsatkichi, shuningdek omillar orasidagi bog'liqlikni adekvatligini ifodalash maqsadida Styudent mezoni ko'rsatkichlari hamda ularning ehtimollik darajalari keltirib o'tilgan. Natijalarga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, Mintaqada sanoat subyektlari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot hajmi bilan Sanoatda band bo'lganlar soni orasida yuqori korrelyatsion bog'liqlik kuzatilishi lozim edi va tadqiqotlar davomida mazkur holat o'z tasdig'ini topdi, ya'ni ikkala ko'rsatkich orasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti 0.86 ga teng bo'lib, ular orasidagi bog'liqlik Styudent mezoni bo'yicha adekvat ekanligi aniqlandi. Biroq Sanoat subyektlar tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot hajmi bilan Nodavlat sektorda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish xajmi orasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,58 ga teng bo'lib, mazkur ko'rsatkich kutilgan darajada yuqori qiymatga ega emasligi aniqlandi. Boshqa tomondan bandlar soni va Nodavlat sektorda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish xajmi orasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,79 ga teng ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Suyunovich, Mukhitdinov Khudoyar, and Norqobilova Feruza Abdihamidovna. "Prospects Of Digitalization Of Craftsmanship Development In The Region." *Journal of Pharmaceutical Negative Results* (2022): 345-352.
2. Kichik korxonalar moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning asosiy elementlarining mutlaq o'zgarishini hisoblash, samaradorlikning nisbiy qiymatlarini, xususan rentabellikni hisoblash va talqin qilishni ta'minlaydigan soddalashtirilgan tahlil shakli bilan cheklanishi mumkin.
3. Молиявий ҳисобот таҳлили. Дарслик. / М.Ю.Рахимов; – Т.: “ИқтисодМолия”, 2021.



4. Abdihamidovna, Norqobilova Feruza. "Financial Services to the Residents of the Region in the Field of Crafts." International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology 1 (2021): 225-230.
5. Норқобилова, Ф. А. "ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ТАРМОҚЛАРИНИ МОДЕЛЛАШТИРИШДА ТИЗИМЛИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ, СИНТЕЗЛАШ ВА ОПТИМАЛЛАШТИРИШ." International journal of conference series on education and social sciences (Online). Vol. 1. No. 2. 2021.
6. Norqobilova, Feruza Abduhomidovna. "MILLIY IQTISODIYOTDA HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARINI RAQAMLASHTIRISHNING RIVOJLANISH YO 'NALISHLARI." THE INNOVATION ECONOMY 1.04 (2023).
7. Tashkilotning moliyaviy natijalarini tahlil qilish muammolari to'g'risida / O. A. Romanova / fanlarning sinergiyasi. — 2021.
8. Moliyaviy tahlil. Darslik. / B.A.Xasanov, M.Y.Raximov, Z.A.Muqumov, A.I.Aliqulov, A.B.Jumanova, N.SH.Xajimuratov, R.B.Xasanova; – T.: “Iqtisodiyot”.